

NATURADAN RASM CHIZISHDA QALAMTASVIR VOSITALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Ilmiy rahbar: Raximov Hasanboy Umarjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi (phd)
Isaboyeva Maftuna Ilyosjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti “Tasviriy san’at
va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada naturadan rasm chizish jarayonida qo‘llaniladigan qalamtasvir vositalari, ularning turlari hamda ulardan samarali foydalanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, tasviriy san’atda kuzatuvchanlik, aniqlik va texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishda qalamtasvirning o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qalamtasvir, natura, rasm chizish, grafika vositalari, yorug‘-soya, perspektiva, kompozitsiya.

Naturadan rasm chizish tasviriy san’atning eng muhim va asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon real borliqdagi predmet va obyektlarni bevosita kuzatish asosida ularni qog‘oz yuzasida ifodalashni o‘z ichiga oladi. Bunday faoliyat rassomdan yuqori darajadagi diqqat, kuzatuvchanlik va texnik mahoratni talab qiladi. Ayniqsa, qalamtasvir vositalaridan to‘g‘ri foydalanish rasmning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qalamtasvir tasviriy faoliyatning poydevori sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Qalamtasvir orqali rassom shakl, hajm, nisbat, yorug‘-soya va fazoviy tasvirlash kabi asosiy elementlarni o‘zlashtiradi. Bu esa keyingi bosqichlarda murakkab badiiy asarlarni yaratish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Naturadan rasm chizish jarayonida qo‘llaniladigan vositalarning xilma-xilligi esa ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Tasviriy san’at bilan shug‘ullanuvchi har qanday ijodkor qaysi yo‘nalishda yoki janrda ishlamasin, u o‘z ijodiy faoliyatini eng avvalo oddiy qalam yordamida boshlaydi. Qalam - tasviriy san’atning eng sodda, ammo eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, u orqali rassom o‘z fikrini, kuzatuvlarini va ijodiy g‘oyalarini dastlabki bosqichda ifodalaydi. Shu sababli qalamtasvir san’atning poydevori hisoblanadi va har bir rassomning professional rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Albatta, yuqori darajadagi natijalarga erishish uchun faqat amaliy mashq yetarli emas, balki nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, tasviriy qonuniyatlarni puxta anglash ham zarur. Bunda muntazam mehnat qilish va o‘z ustida ishlash asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Qalamtasvirni o‘rgatish jarayonida xomaki rasm ishlash alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Xomaki rasm - bu qisqa vaqt ichida bajariladigan tezkor tasvir

bo‘lib, uning asosiy maqsadi kuzatilayotgan naturaning umumiy ko‘rinishi, shakli va mohiyatini tez va aniq ifodalashdan iboratdir. Bunday mashqlar rassomdan tezkor fikrlash, asosiy jihatlarni ajratib olish va muhim detallarni umumlashirish qobiliyatini talab qiladi. Xomaki rasmlar turli vaqt oralig‘ida bajarilishi mumkin va bu ularning maqsadiga hamda shart-sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ayrim xomaki ishlar bir necha daqiqa ichida - 5 yoki 10 minut davomida bajarilsa, boshqalari yarim soat yoki bir soatgacha cho‘zilishi mumkin. Bu vaqt chegaralari rassomga qo‘yilgan vazifaga qarab belgilanadi. Qisqa vaqtli mashqlar ko‘proq tezkor kuzatuv va asosiy shaklni ushlashga qaratilgan bo‘lsa, nisbatan uzoqroq davom etadigan xomaki ishlar esa detal va shaklni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, xomaki rasm ishlash jarayoni rassomning ijodiy fikrlashini tezlashtiradi, ko‘rish va tasvirlash o‘rtasidagi muvofiqlikni mustahkamlaydi hamda qo‘l harakatlarini erkinlashtiradi. Bu esa keyingi murakkab kompozitsion ishlarda katta yordam beradi. Shu jihatdan qaraganda, xomaki rasm qalamtasvir o‘qitish tizimining ajralmas va muhim bosqichi hisoblanadi.

Xomaki rasm naturadan tezkor chizgilar asosida bajariladigan qisqa muddatli tasviriy mashq bo‘lib, u rassomlik faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Bunday turdagi rasm ishlash jarayoni talabning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tasvirni ifodalashda eng maqbul va mantiqan to‘g‘ri vositalarni tanlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu bilan birga, xomaki rasm insonning kuzatuvchanligini kuchaytirib, atrofdagi predmetlarni tez va aniq tahlil qilish malakasini oshiradi. Bu esa kelajakdagi murakkab kompozitsion ishlarda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san‘at sirlarini imkon qadar erta yoshdan, ya‘ni bolalik davridan boshlab o‘zlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda ijodiy fikrlash va tasvirlash qobiliyati jadal rivojlanadi. Shuningdek, tasviriy vositalardan to‘g‘ri foydalanish malakasini ham bosqichma-bosqich shakllantirib borish zarur. Bu jarayon uzluksiz mashq va amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi. Xomaki rasm ishlashda turli xil materiallardan foydalanish mumkin. Masalan, oddiy yupqa qog‘ozlar yoki rangli hamda rangsiz varaqlar qisqa muddatli eskizlar uchun qulay hisoblanadi. Bunday materiallar tezkor ishlashga imkon beradi va ortiqcha tayyorgarlik talab qilmaydi. Biroq uzoq vaqt davomida bajariladigan qalamtasvir ishlari uchun sifatli va mustahkam qog‘oz tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday qog‘ozlar qalam izlarini o‘chirish jarayonida yuzasi buzilmaydigan, uvalanmaydigan va kirlanib ketmaydigan bo‘lishi kerak.

Rasm chizish jarayonida o‘chirg‘ichdan to‘g‘ri foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Yumshoq va sifatli o‘chirg‘ichlar qog‘oz yuzasiga zarar yetkazmasdan qalam izlarini toza va aniq o‘chirish imkonini beradi. Bu esa tasvirning umumiy sifatini saqlab qolishga yordam beradi. Noto‘g‘ri tanlangan yoki qattiq

o‘chirg‘ichlar esa qog‘oz yuzasini shikastlab, rasm sifatini pasaytirishi mumkin. Umuman olganda, xomaki rasm ishlash jarayoni nafaqat tezkor tasvirlash ko‘nikmasini shakllantiradi, balki rassomning ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. To‘g‘ri material tanlash, vositalardan oqilona foydalanish va muntazam mashq qilish orqali talaba o‘z ijodiy salohiyatini bosqichma-bosqich oshirib boradi.

Naturadan rasm chizishda qalamtasvir vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish tasviriy san‘atning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda qalamning turli qattqlik darajalari, chiziq va soyalar orqali predmetning shakli, hajmi va fazoviy joylashuvi aniq ifodalanadi. Qalamtasvir vositalari yordamida yorug‘-soya munosabatlarini to‘g‘ri aks ettirish, kompozitsiyani muvozanatda saqlash hamda detallarga e‘tibor qaratish o‘quvchilarning kuzatuvchanlik va tasviriy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, naturadan rasm ishlash jarayonida qalamtasvir texnikalarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, o‘quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat tasviriy ko‘nikmalarni, balki estetik didni ham rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, qalamtasvir vositalaridan ongli va maqsadga muvofiq foydalanish naturani to‘g‘ri tasvirlashning muhim omili bo‘lib, tasviriy san‘at ta‘limining samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komoldinov, S. J. O. (2026). The pedagogical significance of composition in pencil drawing lessons. *European Journal of Economic Dynamics and Policy*, 2(1), 21-24.
2. Komoldinov, S. J. O. G. L., & Isaboyeva, M. I. Q. (2026). Manzara janrini o‘rgatishda rangtasvir texnikalarining metodik qo‘llanilishi. *Science and Education*, 7(2), 344-349.
3. Jomoldin o‘g‘li, K. S. SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT.
4. Komoldinov, S. (2023, December). Qalamtasvir mashg‘ulotlarida kompozitsiyaning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: “Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
5. Rakhimov, K. (2023). The place of graphics in the fine arts. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 5-8.
6. Rakhimov, K. (2023). THE ROLE OF PORTRAIT ARTISTS IN FINE ARTS. *Models and methods in modern science*, 2(2), 13-19.
7. Rakhimov, H. U. (2023). ANALYZING THE PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON ART STUDIES. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 50-53.
8. Pulatov, D. S., & Kh, R. U. (2019). On fine arts and its varieties. *Вестник магистратуры*, (4-4 (91)), 89-90.
9. ogli Rakhimov, H. U. *AJMR. AJMR*.
10. Oripov, B. B. (2025). Ideals of the third renaissance and their artistic expression in the fine art of Uzbekistan. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(8), 28-32.

11. Oripov, B. B. (2025, December). INCREASING THE SCIENTIFIC COMPONENT OF THE ART OF POTTERY IN STUDENTS. In *International Conference Platform* (No. 6, pp. 134-137).
12. Oripov, B. B. (2025). The connection of fine arts to biological science. *Science and Education*, 6(12), 621-626.
13. BADIRJANOVICH, O. (2020). THE ROLE OF CERAMICS IN PROFESSIONAL TRAINING OF YOUNG PEOPLE IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 447-451.
14. Oripov, B. (2025). O ‘QUVCHILARNING RUHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA VA TARBIYALASHDA, XALQ AMALIY SAN’ATINING O ‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2, 4-3.
15. Oripov, B. N. (2008). Tasviriy san’at ta’limida didaktika.
16. Oripov, B. N. (2006). Fine art and its teaching methodology. *Tashkent-2005." SCIENCE-INTELLIGENCE*.
17. Oripov, B. (2004). Jahon san'ati tarixi. 3 qismli.
18. Oripov, B. (2004). San'at tarixidan qisqacha izohli lug'at.
19. Yuldashev, J. (2024). BO ‘LAJAK TARIX O ‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIGA AKSIOLOGIK YONDASHUVNI JORIY ETISHNING METODIK XUSUSIYATLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 6-6.
20. Yuldashev, J. (2024). BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).
21. Yuldashev, J. BO ‘LAJAK TARIX O ‘QITUVCHILARINING AKSIOLOGIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT*, 251.
22. Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. *JournalNX*, 10(10), 34-38.
23. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. *Академические исследования в современной науке*, 3(50), 33-36.
24. Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In *International Conference on Economics, Finance, Banking and Management* (pp. 201-205).
25. Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In *International Conference on Economics, Finance, Banking and Management* (pp. 201-205).
26. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. *Академические исследования в современной науке*, 3(50), 33-36.
27. Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. *JournalNX*, 10(10), 34-38.

28. Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 201-205).
29. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS—AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(50), 33-36.
30. Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. JournalNX, 10(10), 34-38.
31. Odilboyeva, U. Z. (2025, December). The scientific and pedagogical influence of teacher cognition theory on method selection in the educational process. International Conference Platform, 6, 152–157.
32. Odilboyeva, U. Z. Q. (2026). O ‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TERMINLAR HOSIL BO ‘LISHINING QIYOSIY TAHLILI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (1), 32-36.
33. Odilboyeva, U. Z. (2026, January). THE DEVELOPMENT OF AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS DURING ENGLISH LANGUAGE EDUCATION. In *Claritas Conference Platform* (No. 1, pp. 90-93).
34. Yunusov, G. O. (2026). TALABA-YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA XALQ FOLKLOR SAN’ATINING O ‘RNI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (3), 58-62.
35. Rakhimov, H. U. (2026, January). THE SIGNIFICANCE OF AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE IN VISUAL ARTS EDUCATION. In *Claritas Conference Platform* (No. 1, pp. 30-34).
36. Umarjon ogli, H. R. (2021). Technologies for improving composition and drawing skills based on the rules of composition. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 765–767.